

**O'ZBEKISTONDA LEGAL TECH SOHASIDA XALQARO RAQAMLI HUQUQ
TEXNOLOGIYALARI SAMMITINI TASHKIL ETISH****Ro'zaxon Isog'aliyeva****isagaliyevaroza@gmail.com****Toshkent davlat yuridik universiteti****Ommaviy huquq fakulteti 1-kurs A-potok 1-guruh talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.16093827>**

Annotatsiya: Bu maqolada O'zbekistonda Legal Tech sohasida xalqaro raqamli huquq texnologiyalari sammitini tashkil etishning strategik jihatlar va ahamiyati, tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va samaradorlikka ta'siri kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda huquqiy amaliyotlarni yanada rivojlantirish uchun texnologiyalardan foydalanish zarurati ta'kidlanib, bu borada mutaxassislikka ega bo'lgan xalqaro hamkorlarni jalb qilish va tadbirni qo'llab-quvvatlovchi huquqiy asoslar kabi rejalashtirish jarayonidagi bir nechta muhim bosqichlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu maqolada O'zbekistonning huquqiy va texnologik holatiga xos bo'lgan imkoniyatlar va qiyinchiliklar tahlil qilinib, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va mamlakatni Markaziy Osiyoda huquqiy innovatsiyalar markazi sifatida tanitish maqsad qilingan. Tadqiqot natijalari sammitning raqamli transformatsiyani jadallashtirish, transchegaraviy huquqiy hamkorlikni kuchaytirish va mahalliy legal tech tizimini mustahkamlashdagi salohiyatini yoritib berishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Legal Tech, huquqiy innovatsiyalar, yuridik ta'lim, yuridik hamkorlik, sun'iy intellekt, raqamli transformatsiya, xalqaro sammit, xalqaro ekspertlar, huquqiy tizim, blockcheyn, ma'lumotlar xavfsizligi, O'zbekistonning raqamli rivojlanishi.

KIRISH

Ma'lumki, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi turli sohalar ish faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda, jumladan, huquq sohasiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Avvalo, "Legal Tech" tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, u huquqiy faoliyatda axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minotdan foydalanishni o'z ichiga oladi (Suskind, 2019). Bu soha, asosan, yuridik xizmatlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish, sun'iy intellekt yordamida huquqiy maslahatlar berish kabi yo'nalishlarda keng qo'llanilmoqda. Ushbu atama ostida birlashgan yuridik innovatsiyalar esa huquqiy xizmatlarni raqamlashtirish orqali samaradorlikni yanada oshirish va yuridik jarayonlarni takomillashtirish imkoniyatini yaratdi. Legal Tech sun'iy intellekt yordamida shartnomlarni tahlil qilish, blokcheyn orqali ma'lumotlarni xavfsiz boshqarish va huquqiy maslahatlarni havola qilish uchun platforma yaratish muhimdir. Raqamli huquqiy texnologiyalarga bag'ishlangan xalqaro sammitni tashkil etish bu yo'nalishda muhim qadam bo'ladi. Shu o'rinda "sammit o'zi nima?" degan savol paydo bo'lishi tabiiy, albatta. Sammit bu – davlat rahbarlari yoki mutaxassislar o'rtasida xalqaro siyosat, iqtisodiyot yoki ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan masalalarni muhokama qilish maqsadida o'tkaziladigan yig'ilish degan ma'noni anglatadi. Bunday tadbir yuridik mutaxassislar, texnologiya ekspertlari, siyosatchilar va investorlarni bir joyga to'plab, so'nggi tendensiyalarni muhokama qilish, eng yaxshi tajribalarni almashish va hamkorlik aloqalarni rivojlantirish imkonini beradi. Sammit, xususan, huquqiy amaliyotda sun'iy intellektdan foydalanish, ma'lumotlar xavfsizligi muammolari va huquq sohasidagi raqamli transformatsiya uchun me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish kabi dolzarb masalalarni yoritish orqali innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bu mamlakatimizni texnologik va huquqiy yutuqlar markazi sifatida ko'rsatib,

xalqaro e'tiborni jalb qilishi va mintaqada o'sish uchun yangi imkoniyatlarni yaratishi mumkin. Maqolaning dolzarbligi shundaki, kundan kunga raqamlashib borayotgan bugungi kunda, o'z-o'zini yuksaltirishni istagan har bir shaxs uning kasbiy faoliyatidan qat'iy nazar texnologiyalar bilan ishlay olishi, shuningdek, rivojlanishni va taraqqiyot cho'qqisiga chiqishni maqsad qilgan har bir mamlakat texnologik jihatdan ham "yaxshi qurollangan" bo'lishi bu XXI asrning eng muhim talablaridan biri hisoblanadi. Shu jumladan, O'zbekiston ham ushbu talablarga javob berish maqsadida shu masalada bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Bunda Legal Tech, ya'ni huquqiy xizmatlarni raqamlashtirish ham diqqat markazidan bo'lib qolmoqda. Bu borada rivojlangan xorijiy davlatlar bilan tajriba almashish maqsadida O'zbekistonda ham xalqaro raqamli huquq texnologiyalari sammitini tashkil etish va ularni muntazam ravishda o'tkazib borilishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi O'zbekistonda Legal Tech sohasida raqamli yuridik texnologiyalarga oid xalqaro sammit tashkil etishning strategik ahamiyatini o'rganish va uni amalga oshirish bosqichlarini tahlil qilish, qolaversa, kompleks tahlil orqali maqola muvaffaqiyatli xalqaro tadbir innovatsiyalarni qanday qilib rivojlantirishi, bilim almashinuvini qanday targ'ib qilishi hamda O'zbekistonning yuridik xizmatlar raqamlar transformatsiyasidagi yetakchilik mavqeyini qanday mustahkamlashi haqida tushunchalar berishdan iborat.

USULLAR

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda Legal Tech sohasida xalqaro raqamli huquq texnologiyalari sammitini tashkil etishning foydali jihatlarini o'rganish va uning tashkil etilish jarayonini kompleks tahlil qilish maqsadida miqdoriy va sifat usullarini birlashtirgan aralash metodologiyaga asoslanadi. Quyidagi tadqiqot usullaridan foydalaniladi:

Qonun hujjatlari tahlili

Ochiq manbalardan olingan hujjatlar tahlil qilinadi, jumladan: O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonun (O'RQ-395-son 09.12.2015), "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun (O'RQ-547-son 02.07.2019), shuningdek, huquq sohasida texnologiyalarni rivojlantirishga oid boshqa milliy qonunchilik hujjatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili: Legal Tech sohasiga oid ilmiy maqolalar, kitoblar va boshqa manbalarga asoslangan holda mavzuga oid nazariy bilimlar egallanib, tahlil qilindi. Jumladan, ishonchli va kengaytirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi JSTOR, Google Scholar kabi ma'lumotlar bazalaridan foydalanilishi ko'zda tutilgan.

So'rovnoma: O'zbekistonda Legal Tech sohasida xalqaro raqamli huquq texnologiyalari sammitini tashkil etishning afzalliklari va buni amalga oshirish jarayonida duch kelish mumkin bo'lgan qiyinchiliklar haqida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadida onlayn so'rovnoma o'tkazilishi rejalashtirilgan. So'rovnomada huquq sohasidagi mutaxassislar, Legal Tech sohasidagi ekspertlar, ehtimoldagi ishtirokchilar va akademik ekspertlar ishtirok etishi kutiladi. So'rovnoma savollari O'zbekistonda huquqqa oid texnologiyalarning bugungi kundagi holati, sammitda bu bo'yicha ta'kidlanishi lozim bo'lgan kerakli mavzular, texnologik vositalar va spikerlar, ishtirokchilarning ehtiyojlari va ularning O'zbekistonda bu turdagi sammitlarni o'tkazishdan kutayotgan natijalari, shuningdek huquqiy sohada raqamli transformatsiya bilan bog'liq bo'lgan asosiy muammolar haqidagi savollarni o'z ichiga oladi. So'rovnoma natijalari SPSS dasturi yordamida tahlil qilinadi.

Chuqurlashtirilgan intervyu: Legal Tech sohasidagi eng kamida 15 nafar ekspertlar bilan yarim strukturalashgan intervyular o'tkaziladi. Bu intervyular qatnashchilarning qulayligini ta'minlagan holda Zoom onlayn platformasi orqali tashkil etilishi va har bir intervyu uchun o'rtacha 40 daqiqa vaqt ajratilishi belgilangan. Suhbat jarayonida taklif etilgan huquqiy texnologiya innovatorlari va startap asoschilari, huquqiy mutaxassislar (sudya, advokat, huquqiy maslahatchilar) va texnologiya sohasidagi akademik mutaxassislarning fikri va g'oyalari o'rganiladi.

Hodisani o'rganish (case study): Butun dunyo bo'ylab shu kabi summitlarni muvafaqqiyatli tashkillashtirgan bir nechta xorijiy davlatlar tajribalari (masalan, yaqindagina 19-20-sentabr kunlari bo'lib o'tgan Berlindagi 7-jahon huquqiy texnologiyalar sammiti) o'rganiladi. Ushbu davlatlarning veb-saytlari, yillik hisobotlari va ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, 2023-yil 17-18-may kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan, 600 dan ortiq mahalliy va xorijiy ekspertlarni birlashtira olgan "Tashkent Law Spring" III Xalqaro yuridik forumini tashkil qilinish jarayoni, bunda yuzaga kelgan bir nechta muammolar va ushbu forumdan olingan tajribalarni tahlil qilish orqali muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni olish mumkin. Ta'kidlash joizki, bu galgi forumda 20 dan ortiq davlat vakillari, shu jumladan Armaniston, Belarus, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gruziya, Ozarbayjon, Rossiya, Ruminiya, Saudiya Arabistoni, Singapur, Sloveniya, Turkiya va Yaponiya kabi davlatlardan ekspertlar ishtirok etdi. Bu esa xorijiy davlat vakillari bilan bilim va ko'nikma, qolaversa, tajriba almashish uchun ajoyib imkoniyatni taqdim etdi.

NATIJALAR

Ushbu tadqiqotni amalda tatbiq qilish natijasida O'zbekistonda Legal Tech sohasida xalqaro raqamli huquq texnologiyalari sammitini tashkil etishning kutilayotgan afzalliklari bo'yicha quyidagi asosiy ma'lumotlarni olish mumkin:

Yuridik xizmatlarda innovatsiyalar qo'llash

O'zbekiston Respublikasida raqamli texnologiyalarni qo'llashga oid huquqiy asoslar mavjud. Elektron hukumat va shaxsiy ma'lumotlar himoya qilinishining ta'minlanishi to'g'risidagi qonunlar yuridik xizmatlarni raqamlashtirishga yo'naltirilgan huquqiy infratuzilmaning shakllanishiga yordam beradi. O'zbekistonda raqamlashtirish sohasi bilan bog'liq davlat siyosati huquqiy texnologiyalar rivojiga muhim asos bo'lib xizmat qiladi va davlat boshqaruvi tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan fuqarolar uchun huquqiy xizmatlarni avtomatlashtirish va soddalashtirish orqali uni qulaylashtirish imkonini beradi. Masalan, sud jarayonlarida va yuridik hujjatlarni tayyorlashda sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanib, hujjatlarni tezkorlik bilan ko'rib chiqish, takroriy jarayonlarni avtomatlashtirish va yo'l qo'yilish ehtimoli bor bo'lgan xatolarni kamaytirishga yordam beradi. Blokcheyn texnologiyasi esa yuridik hujjatlarning haqiqiylikni tasdiqlash va ularni himoya qilish uchun qo'llanilishi mumkin sababi u har bir tranzaksiyani, yozuvni, umuman olganda, unga kiritilgan har qanday ma'lumotni o'zgartirib bo'lmaydigan shaklda qayd etadi, shuning uchun, noto'g'ri ma'lumotlar kiritilganda ularni tuzatish qiyin. Bu esa firibgarlik va noto'g'ri ma'lumotlar kiritilishi xavfini kamaytiradi. Shu bilan birga, smart kontraktlar yuridik majburiyatlarni avtomatik bajarilishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi, masalan, tijoratga doir bitimlarda to'lovlar, mahsulotni yetkazib berishni nazorat qilish va avtomatlashtirishda va boshqa shartlar

bajarilishini nazorat qilishda qo'llanilishi mumkin. Bu texnologiyalar yuridik jarayonlarni yanada tez, shaffof va xavfsiz qiladi.

Startup va xususiy sektorga investitsiya jalb etish

Sammit yurtimizdagi Legal Tech startaplar va boshqa yuridik texnologiyalarga asoslangan kompaniyalar uchun xalqaro investorlar bilan hamkorlik o'rnatish ehtimolini oshiradi, ya'ni Legal Tech startaplar uchun bu turdagi sammit tashkil etish investitsiya jalb qilishning samarali platformasi bo'lib xizmat qiladi. Sammit jarayoni davomida xorijiy va mahalliy investorlar bilan muloqot o'rnatilishi natijasida ular tomonidan Legal Tech startaplar uchun investitsiyalar kiritilishi mumkin. Bunday startaplar ichki bozorda mijozlarga yo'naltirilgan, yuridik xizmatlar ko'rsatishni avtomatlashtiruvchi yoki jarayonlarni soddalashtiruvchi mahsulotlar yaratishga imkon beradi. Masalan, advokat yoki mijozlarni bog'lovchi yoki onlayn maslahat berish funksiyasiga ega bo'lgan platformalar uchun sarmoya zarur bo'lishi mumkin.

Sud tizimida samaradorlikni oshirish

Sud jarayonlarini raqamlashtirishga erishish orqali tizimdagi samaradorlikni oshirish va fuqarolar uchun adolatga erishish imkoniyatlarini yanada oshirish mumkin. Elektron sud jarayonlarini (masofaviy eshituvlar, hujjatlarni onlayn tarzda qabul qilish va ularga kirish imkoniyati) misol qilib oladigan bo'lsak, bunday usulda sud jarayonini o'tkazish ishni ko'rib chiqishni tezlashtiradi.

Yuridik kardlarni tayyorlashni takomillashtirish

Ma'lumki, O'zbekistonda Legal Tech tushunchasi hali ham rivojlanish bosqichida, ya'ni to'liq taraqqiyotga yetgan emas. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda, asosan, Legal Tech sohasida kadrlar yetishmasligi muhim muammolaridan biri. Sammit davomida xorijiy va mahalliy mutaxassislarning ishtiroki yurtimizda bu sohada malakali kadrlarni tayyorlash imkonini kengaytiradi. Universitetlar va o'quv markazlarida yuridik texnologiyalar bo'yicha alohida kurslar, treninglar, dasturlar va amaliyotlar tashkil etilishi mumkin. Yuridik ta'lim tizimiga raqamli huquq texnologiyalari va IT yondashuvlarini kiritish orqali talabalar huquq va texnologiyalarni birgalikda o'rganish imkoniga ega bo'ladilar, bu esa o'z navbatida yuridik jarayonlarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi.

Qonunchilikni yangilash va moslashtirish

Legal Tech sohasining rivoji yangi qonunchilik talablarini shakllantiradi. Masalan, yuridik hujjatlarni blokcheynda tasdiqlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash yoki sun'iy intellektni yuridik xizmatlarda qo'llash masalalari bo'yicha maxsus me'yorlarni o'z ichiga oluvchi hujjatlar zarur bo'ladi. Sammitni o'tkazish jarayonida ehtimol xalqaro tajribalarga asoslangan takliflar ishlab chiqilishi mumkin. Shu sababli, yangi qonunchilik normalarini qabul qilish orqali, O'zbekistonda Legal Tech sohasini rivojlantirish uchun xalqaro standartlarga mos me'yoriy bazani shakllantirish imkonli bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy ta'sir va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish. Fuqarolar uchun raqamli yuridik xizmatlarning ochiqligi va qulayligi ham ularning huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, aholi o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob yoki zarur bo'lgan huquqiy maslahatlarni onlayn tarzda qabul qilish, murojaatlarni onlayn tarzda amalga oshirish, o'z huquqiy imkoniyatlaridan foydalanishga yordam beradi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan keng imkoniyatlardan foydalangan holda turli xil bot yoki dasturlar

yaratish orqali fuqarolarning huquqiy masalalarda tezkor javob olishlarini ta'minlash mumkin. Bu jarayon aholining huquqiy madaniyatini oshirishga va ularning davlat bilan o'zaro munosabatlarining shaffoflashuviga ko'maklashadi.

Xalqaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish

Sammitning o'tkazilishi natijasida O'zbekiston turli xil rivojlangan xalqaro tashkilotlar, huquq texnologiyalariga sohasidagi kompaniyalar va xorijiy davlatlar bilan yaqindan hamkorlik o'rnatish imkonini qo'lga kiritadi. Bu xalqaro hamkorlik orqali O'zbekiston chet davlatlarning yuridik texnologiya tajribalaridan o'rganishi, natijada yurtimizda ham yangi texnologiyalar va yondashuvlarni joriy qilinishi mumkin. Qolaversa, xalqaro sammitlar orqali yurtimizga xorijiy ekspertlarni jalb qilish, ulardan amaliy tajribalar olish va ular bilan hamkorlikdan yangidan yangi loyihalar tashkil etish mumkin.

O'zbekistonda Legal Tech sohasida xalqaro raqamli huquq texnologiyalari sammitini tashkil etishda ehtimoldagi qiyinchiliklar Ushbu sammitni o'tkazish doirasida yuqorida ta'kidlab o'tilgan tadqiqotni amalga oshirishda duch kelish mumkin bo'lgan asosiy qiyinchiliklar:

a) Moliyaviy to'siqlar: Ma'lumki, bu turdagi sammitlarni o'tkazish uchun joy ijarasi, zamonaviy texnik jihozlar, xorijiy davlatlardan tashrif buyuradigan mehmonlar uchun transport va ularni ma'lum muddat davomida turarjoy va yashash xarajatlari, reklama va marketing uchun ko'p miqdorda mablag' talab etishi mumkin. Homiylardan mablag' to'plash yoki davlat tomonidan moliyalashtirish cheklanganligi natijasida sammitni sifatli tarzda o'tkazishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

b) Texnik infratuzilmaning yetishmasligi: Umuman olganda, sammit o'tkazish, ayniqsa, bu turdagi, raqamli texnologiyalarga oid

bo'lgan tadbirlar tashkil etish va ularni sifatli va samarali tarzda o'tkazish uchun rivojlangan texnik infratuzilmalar talab qilinadi. Sababi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi bu jarayonda qiyinchiliklarga olib keladi.

c) Malakali kadrlarning yetishmasligi: Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Legal Tech sohasi O'zbekistonda nisbatan yangi soha hisoblanadi, shu sababli, bu sohada yetarli tajribaga ega mutaxassislarning yetishmasligi katta muammo keltirib chiqaradi, ya'ni ushbu sammitni tashkil etishda va unda muhokama qilinadigan texnologiyalarga oid mavzularni yoritishda kerakli mutaxassislarni topish qiyin bo'lishi ehtimoli yuqori. Xalqaro ekspertlarni jalb qilish va tajribalaridan foydalanishda ma'lum bir til to'siqlari va kommunikatsiyada qiyinchiliklarga olib kelishi bilan birga, bu juda katta mablag'ni ham talab qiladi.

d) Qonunchilikdagi nomuvofiqliklar: Huquqiy tizim uchun yangi texnologiyalar hali to'liq yoritilmagan va tartibga solinmagan sohalaridan biridir. Masalan, blokcheyn yoki sun'iy intellektni yuridik jarayonlarda qo'llash ko'plab afzalliklarga ega bo'lsada, ularni qo'llashga oid aniq qonunchiliklar bazasi mavjud emas. Shu sababli, texnologiyalarni qonuniy jihatdan qabul qilish va joriy qilish jarayonida qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

e) Yangi texnologiyalarni joriy etishga qarshilik: Ma'lumki, barcha sohalarda, jumladan, huquq sohasida ham an'anaviy ish uslublarini qo'llash odat tusiga kirgan, shuning uchun xodimlar, asosan yoshi nisbatan katta xodimlar yangi texnologiyalarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelganliklari sababli ular tomonidan qarshilik ko'rsatilishi mumkin. Bu esa raqamli texnologiyalarning birdek to'liq qabul qilinmasligiga olib keladi.

MUHOKAMA

Yuqorida ta'kidlangan va O'zbekistonda Legal Tech sohasida o'tkazilishi rejalashtirilayotgan xalqaro raqamli huquq texnologiyalari sammitini tashkil etishdan olinishi mumkin bo'lgan afzalliklar, yutuqlar va kelib chiqishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar chuqur tahlil qilinishi kerak. Bu sammitni o'tkazish mamlakatimizda Legal Tech sohasining rivojlanishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutiladi. Yutuqlar jihatidan, bu sammit O'zbekistonga o'zining investitsiya va texnologik imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Eng katta afzalliklaridan biri esa tadbirga jalb qilingan xorijiy mutaxassislar bilan tajriba almashish, shuningdek, xalqaro huquqiy texnologiyalar sohasidagi yangiliklarni namoyish etish orqali mahalliy mutaxassislar va huquqshunoslar uchun yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoniyati paydo bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, tadbir O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ammo O'zbekistonda Legal Tech sohasida mutaxassislar yetishmovchiligi, ayniqsa, sammit davomida ko'zga tashlanadigan muammolardan biridir. Sababi, Legal Tech sohasi uchun huquqiy bilimlar bilan birga texnologik malaka ham zarur bo'ladi.

NATIJA

O'zbekistonda xalqaro raqamli huquq texnologiyalari sammitini tashkil etish mamlakat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sammit O'zbekistonning Legal Tech sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirib, mamlakatni mintaqadagi innovatsion markazlardan biri bo'lishga yana bir muhim qadam bo'lishi mumkin. Xususan, sammit orqali mamlakat yangi yuridik texnologiyalarni o'rganish, mahalliy tizimga tatbiq qilish va xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu sammitning afzalliklaridan biri huquqiy xizmatlarni avtomatlashtirish va raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtirishdir. Masalan, blokcheyn texnologiyasi, smart kontraktlar, umuman olganda, Legal Tech sohasi huquqiy xizmatlarni yanada arzon, tezkor va ishonchli qiladi. Shu orqali O'zbekistonning huquqiy tizimi, jumladan, sud tizimi samaradorligi oshib, aholi uchun yanada qulay xizmatlarni taqdim etish mumkin bo'ladi. Lekin, sammitni tashkil etishda ma'lum bir qiyinchiliklar ham mavjud. Jumladan, O'zbekistonning texnik infratuzilmasi va qonunchilik tizimi raqamli texnologiyalarni joriy etishga butunlay tayyor emas, ya'ni maxfiylik va raqamli huquqiy xizmatlarni tartibga soluvchi qonunchilikda hali bo'shliqlar mavjud. Sammit orqali bu masalalar yuzasidan xorijiy tashkilotlar va ekspertlar bilan tajriba almashish va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar olish mumkin bo'ladi. Yana bir muhim muammolardan biri malakali kadrlar yetishmasligi. Legal Tech sohasida huquqiy bilimlardan xabardor bo'lish bilan birga texnologik ko'nikmalarga ham ega bo'lgan mutaxassislarning kamligi yangi texnologiyalarni joriy etishda muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro raqamli huquq texnologiyalari sammitini tashkil etish O'zbekistonning xalqaro raqamli huquq texnologiyalari sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirish, xorijiy tajriba va investitsiyalarni jalb qilish, texnologik infratuzilmani rivojlantirish va qonunchilikni takomillashtirish uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy va texnologik rivojlanishiga, huquqiy tizimning samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shishi mumkin.

№	Muammo	Tavsiya va takliflar (Nazariy)	Tavsiya va takliflar (Amaliy)
1.	Moliyaviy to'siqlar	Ushbu sammitni o'tkazishning uzoq muddatli foydasi va bu uchun unga sarmoya kiritish zarur ekanligini tushuntirish	Investitsiyalarni jalb qilish uchunoliyaviy hub ochish. Masalan, Qozog'istondagi AIFC
2.	Texnik infratuzilmaning yetishmasligi	Internet va tarmoqlarni modernizatsiya qilish; bulut texnologiyalarini rivojlantirish	Yirik telekommunikatsiya va bulut texnologiyalari kompaniyalari bilan kelishuvlar o'rnatish
3.	Malakali kadrlarning yetishmasligi	Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish	Muntazam treninglar va vebinarlar tashkil etish, xodimlarni huquq va texnologiya sohalarini umumlashtirgan holatda o'qitish
4.	Qonunchilikdagi nomuvofiqliklar	Ma'lumotlar xavfsizligi ta'minlash hamda ularni tartibga solish uchun yangi qonunlar ishlab chiqish	Ishlab chiqilgan qonunlarni joriy qilish, mavjud qonunchilik doirasida ichki qoidalar ishlab chiqish
5.	Yangi texnologiyalarni joriy etishga qarshilik	Afzalliklarni tushuntirish va namoyon qilish	Ko'maklashuvchi texnologiyalar va qulay interfeyslarni yaratish.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Susskind, R. (2019). Online courts and the future of justice. OxfordUniversity Press.
2. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni, 09.12.2015-yildagi O'RQ-135-son. <https://lex.uz/docs/-2833860?ONDATE=11.06.2016&ONDATE2=21.04.2021&action=compare>
3. O'zbekiston Respublikasining " Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 02.07.2019-yildagi O'RQ-547-son. <https://lex.uz/docs/-4396419?ONDATE2=21.04.2021&action=compare>
4. Introduction to SPSS for statistical analysis/Research Commons.The University of British Columbia.<https://researchcommons.library.ubc.ca/introduction-to-spss-for-statistical-analysis/>
5. 7th World Legal Tech Summit 2024. <https://events.coinpedia.org/7th-world-legal-tech-summit-5386/>

6. The III International Legal Forum “Tashkent Law Spring”.
<https://www.uzbekembassy.in/the-iii-international-legal-forum-tashkent-law-spring-will-be-held-in-tashkent-on-may-17-18/>
7. Perspectives in Law, Business and Innovation, page3 <https://doi.org/10.1007/978-981-13-6086-2>
8. Perspectives in Law, Business and Innovation, page5 <https://doi.org/10.1007/978-981-13-6086-2>